


SAMARQAND VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-may *)

2019 yilning yanvar-may oylarida, viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 5412,6 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 108,1% ga oʻsdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 723,7 mlrd. soʻmni (oʻsish surʼati 170,3%), kichik tadbirkorlik subʼektlarining tovar aylanmasi 4688,9 mlrd. soʻmni (oʻsish surʼati 102,3%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 650,9 mlrd. soʻm (oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 92,4%)ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. soʻm)



2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining oʻsish surʼatlari kuzatilib, nisbatan yuqori oʻsish surʼatlari Samarqand va Kattaqoʻrgʻon shaharlari, Jomboy, Payariq va Samarqand tumanlarida qayd etildi.

*-dastlabki maʼlumot

Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 70,3% ga o`tdi va 723,7 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 13,4% ulushiga to`g`ri keldi.


Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 4688,9 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-may oylariga nisbatan 102,3 % ga o`tdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,6 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2018 yil yanvar-may




2019 yil yanvar-may



■ Yirik korxonalar
■ Kichik tadbirkorlik

**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,9%), Nurobod (99,9%), Bulung'ur (99,9%), Tayloq (99,8%), Qo'shrabot (99,8%) va Narpay (99,8%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 13,4% ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (38,1%), Samarqand tumanida (31,9%) va Pastdarg'om tumanida (4,5%) kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalar chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi


Hudud nomi	Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Samarqand viloyati	723,7	170,3	4688,9	102,3
Samarqand shahri	586,1	2,1 m.	952,2	87,7
<i>Kattaqo`rg`on shahri</i>	0,4	52,4	313,5	107,2
<i>tumanlar:</i>				
Bulung`ur	0,4	-	307,2	106,0
Jomboy	1,7	-	160,5	107,4
Ishtixon	4,5	-	229,0	104,5
Kattaqo`rg`on	1,0	-	226,8	105,0
Narpay	0,5	-	191,5	106,5
Nurobod	0,2	-	206,5	105,4
Oqdaryo	1,1	-	120,1	104,2
Payariq	0,9	-	205,8	105,9
Pastdarg`om	18,2	60,6	388,3	110,7
Paxtachi	0,7	-	188,0	105,0
Samarqand	96,2	85,5	205,7	121,7
Tayloq	0,3	-	156,7	105,6
Urgut	11,2	6,9 m.	659,4	104,3
Qo`shrabot	0,3	-	177,7	106,2

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



Kichik tadbirkorlik sub`ektlari chakana savdo tovar aylanmasi hajmi yuqori bo'lgan Samarqand shahri 952,2 mlrd. so'm, Urgut tumani 659,4 mlrd. so'm, Pastdarg'om tumani 388,3 mlrd. so'm, Kattaqo'rg'on shahri 313,5 mlrd. so'm, Bulung'ur tumani 307,2 mlrd. so'm, Ishtixon tumani 229,0 mlrd. so'm, Kattaqo'rg'on tumani 226,8 mlrd. so'm va Nurobod tumani 206,5 mlrd. so'mlik hajm bilan chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida tumanlarning ulushi, (%)



2019 yil yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 1422,0 ming. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,8% ga ko'paydi. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-may oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatning ayrim hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Kattaqo'rg'on shahri (3 562,9 ming. so'm), Samarqand shahri (2 852,4 ming. so'm) va Bulung'ur tumani (1 679,9 ming. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Oqdaryo (778,0 ming. so'm), Tayloq (799,8 ming. so'm) va Payariq (845,1 ming. so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Hududlar nomi	Ming. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Samarqand viloyati	1422,0	105,8
Samarqand shahri	2852,4	110,8
Kattaqo`rg`on shahri	3562,9	105,6
<i>tumanlar:</i>		
Bulung`ur	1679,9	103,9
Jomboy	965,2	105,6
Ishtixon	940,5	104,2
Kattaqo`rg`on	851,5	103,3
Narpay	918,6	104,9
Nurobod	1403,3	103,3
Oqdaryo	778,0	104,0
Payariq	845,1	104,0
Pastdarg`om	1172,9	104,6
Paxtachi	1333,1	103,2
Samarqand	1223,9	105,1
Urgut	1352,7	103,0
Tayloq	799,8	103,6
Qo`shrabot	1385,7	104,1

2019 yilning yanvar-may oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,4 % ni tashkil etib, 131,1 mlrd. so`mga yetdi, yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 110,2% o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 90,7% ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


SAMARQAND VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-may*)

Joriy yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 2288,1 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 111,5% ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra 1566,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,4% ni tashkil etdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 68,5% ni tashkil qilmoqda. Yirik korxonalar esa, 721,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 138,0% ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik va kichik korxonalarning ulushi, (%)



*-dastlabki ma'lumot

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-85-23
66-235-65-80**